

**SAID AHMAD ASARLARIDA O'XSHATISHLAR ("UFQ" TRILOGIYASI
MISOLIDA)**

Chorshanbiyeva Shahnoza

*Termiz davlat universiteti magistratura bo'limi Lingvistika: o'zbek tili ta'lim
yo'nalishi II kurs magistranti*

Annotatsiya: *O'xshatishlar nutqimizda katta badiiy- uslubiy imkoniyatlarga ega bo'lgan, nutqning ifodaliligini, jozibadorgini ta'minlaydigan vositalardan biri hisoblanadi. Badiiy asarlarda o'xshatishlar uslubiy vazifa bajaribgina qolmay, yozuvchining tasavvur olami naqadar keng ekanligini ko'rsatib beradi. O'zbekning mashhur yozuvchilaridan bo'lmish Said Ahmad o'zining asarlarida o'xshatishlardan juda keng foydalangan. O'xshatishlar uslubiy xususiyatlariga ko'ra badiiy asarlarda ko'p uchraydi. Quyida Said Ahmad asarlarida qo'llangan o'xshatishlar va ularning leksik, semantik hamda uslubiy xususiyatlariga to'xtaldik.*

Kalit so'zlar: *o'xshatishlar, uslubiy vazifa, erkin o'xshatishlar, turg'un o'xshatishlar, lingvopetik salmoq.*

Atoqli adib O'zbekiston Qahramoni va O'zbekiston xalq yozuvchisi unvonlari sohibi Said Ahmad ijod olamiga nazar tashlaydigan bo'lsak, asarlarida so'zdan naqadar mohirona foydalanganligiga guvoh bo'lamiz. O'rnida qo'llangan so'zlar asarning muvaffaqiyatga erishib, insonlar ko'nglidan joy olishida muhim ahamiyat kasb etadi. Said Ahmad ana shunday odamlar muhabbatiga sazovor bo'lgan bir qancha asarlar yaratgan so'z ustasidir.

Jahon tilshunosligida XX asr oxiridan boshlab tilni antroposentrik yondashuv asosida tadqiq etish barqarorlashib, bugungi kunda lisoniy birliklarni millat madaniyati bilan aloqadorlikda o'rganuvchi lingvomadaniyatshunoslik tarmog'i istiqbolli yo'nalishga aylandi. So'nggi o'n yilliklarda tilni o'z sohibi, uning milliy mentaliteti, milliy madaniyati bilan birga tadqiq etishga e'tibor kuchaydi. Bu tilshunoslikda insonning olamni o'zlashtirishdagi muhim kognitiv faoliyati bo'lmish o'xshatishlarga ham millatning milliy- mental xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim lingvomadaniy vosita sifatida qarash ehtiyojini yuzaga keltirdi.

Said Ahmad asarlarida nutqning badiiy-estetik tomonlarini ochib beradigan, uning ifodaliligi, ta'sirchanligini ta'minlaydigan vosita hisoblangan o'xshatishlardan juda keng va samarali foydalangan. O'xshatishlar yozuvchining so'z qo'llash mahoratini namoyon etuvchi vositalardan biri sifatida badiiy nutqda alohida o'rin tutadi. Yozuvchi o'zining badiiy tasvir maqsadiga muvofiq ravishda xilma- xil original o'xshatishlar yaratadi, bu o'xshatishlar kutilmaganligi, ohorliligi bilan o'quvchini rom etadi. Muayyan ruhiy yoki jismoniy holat, xususiyat, predmetlarni o'quvchi ko'z o'ngida yaqqol gavdalantiradi. O'xshatishlar u yoki bu predmetning belgisini, ikkinchi narsa yoki predmetning huddi shu belgisiga qiyoslash natijasida vujudga keladi.

O'xshatishlar quyidagi qo'shimchalar orqali hosil qilinadi :

- "day" qo'shimchasi. O'zbek tilshunosligida va badiiy nutqda o'xshatish hosil qiluvchi eng semahsul vositadir. Bu qo'shimcha yordamida hosil qilingan o'xshatishlar oddiyligi bilan ajralib turadi. Masalan: *oltinday sap- sariq, buloqdek sof, ohuday hurkak va h.k.*

O'xshatish tasviriy ifodaning eng qadimgi shakllaridan bo'lib, Aristotel poeziyani o'xshatish san'ati deb ataydi¹. Uning fikricha inson boshqa mavjudotlardan o'xshatish qobiliyati borligi bilan ajralib turadi, hatto u dastlabki bilimlarni aynan o'xshatishlardan oladi va bu jarayon samaralari narchaga huzur bag'ishlaydi.

O'xshatish o'zbek mumtoz adabiyotshunosligining an'anaviy vositalaridan biri bo'lib, XV asr badiiy san'atlar ilmining donishmandi Atoullah Husayniy uni shunday ta'riflagan. "Tashbeh vasfta bir nimani bir nimaga o'xshatmoqtin iborattur. Anikim, tashbeh qilurlar mushabbah derlar va anikim anga tashbeh qilurlar, mushabbah bix derlar va ul vasfni vajx-i-shibx (o'xshash tomoni) derlar"¹.

O'zbek tilshunosligida o'xshatishlar haqida tadqiqotni boshlab bergan olim, M.Mukarramov hisoblanadi. Olim bu san'at turini uch asosdan iboratligi, o'xshatiluvchi obyekt va o'xshovchi obraz o'xshatishning sharti ekanligini ta'kidlaydi². O'xshatish vositasi asos sifatida hisobga olinmaydi.

O'xshatishning badiiy funksiyasi nutqning badiiy- obrazlilikini oshirish, shu orqali kishida estetik ta'sir uyg'otishdir. Badiiy asarlarda uchraydigan barcha o'xshatishlarga shu nuqtai nazardan yondashib bo'lmaydi. Sababi, o'xshatishlar o'xshatish obyektini va o'xshatish subyektining, ular orasidagi o'xshash belgining oldindan ma'lum yoki noma'lumligi bilan o'zaro farqlanadi. Shu boisdan badiiy nutqda uchraydigan o'xshatishlarni ikki guruhga bo'lish mumkin. Bular:

1. Umumxalq xarakteridagi o'xshatishlar. Bu turdagi o'xshatishlarda obyekt va subyekt o'rtasidagi belgi oldindan ma'lum bo'ladi, masalan: *olmaday tarang, bulutdek oppoq, buloqdek toza va hokazo;*

2. Badiiy o'xshatishlar. Badiiy o'xshatishlarda kutilmagan, avvaldan ma'lum bo'lmagan yoki o'xshayotgan va o'xshatilayotgan predmetlar uchun xos bo'lmagan belgi mavjud bo'lib, ular obrazlilik asosida vujudga keladi.

Biz quyida atoqli ijodkor Said Ahmadning barchamizga tanish bo'lgan mashhur "Ufq" trilogiyasida qo'llanilgan o'xshatishlarga misollar keltiramiz va ularning leksik, semantik va lingvokognitiv tomonlarini tahlil qilamiz.

Ariq bo'yiga kelib yuvinishga endi engashgan ham ediki, tomorqa tarafdan ingragan tovush keldi. O'qdek otilib tomorqaga chopdi. (7-bet)

Bu gapda yozuvchi o'xshatishning oddiy ya'ni umumxalq xarakteridagi turidan foydalangan bo'lib, o'xshovchi predmet- *o'q*; o'xshatilayotgan predmet- *Ikromjon*,

¹ Atoullah Husayniy. *Badoyi us-sanoyi*, - Toshkent : G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at, 1981.- B.6.

² Mukarramov. M O'zbek tilida o'xshatish. -B.6

(buyerda ismi keltirilmagan, ammo mazmundan anglab olsa bo'ladi); o'xshash belgi-tezlik, tez yugurganlik; -dek o'xshatish vositasi;

Tursunboy husnda tengsiz yigit edi. Qosh-ko'zlari popukdek. (8-bet)

O'xshatish turi, *badiiy o'xshatishlar*. O'xshovchi predmet- *popuk*; o'xshatilayotgan predmet- *qosh-ko'zlar*; o'xshash belgi esa *mayinlik, yoshlik, navqironlik ma'nosida*; -dek o'xshatish vositasi. Bu gapda predmetlar orasidagi o'xshash belgi oldindan ma'lum, oddiy belgi hisoblanadi. Ammo badiiy o'xshatish turiga kiritaymiz, nima uchun? Sababi qosh ko'zlari popukdek degan sifatlashlar asosan qizlarga nisbatan aytiladi, bu yerda esa o'xshatilayotgan predmet yigit kishi ya'ni Tursunboy. Vaholangki, qosh-u ko'zni popukka o'xshatish, erkaklarga nisbatan kamdan kam, ba'zi hollarda badiiy adabiyotlarda qo'llaniladi. Mana shu jihat badiiy o'xshatish turini hosil qilgan deyish mumkin. Shu o'rinda yozuvchining lingvokognitiv mahorati ham ishga tushganligini kuzatamiz, ya'ni: Tursunboyning nihoyatda erkaligi, o'ziga bino qo'yganligi va ota-onaning bolasini haddan ziyod avaylashlari oqibatida kelajakdagi mudhish ishlarning kelib chiqishiga aynan shu o'xshatish orqali ishora qilinganligining guvohi bo'lishimiz mumkindir. *olov ichiga bosh suqib loladek qip-qizil nonlarni uzib ustiga suv separ.*

Bu gapdagi o'xshatilayotgan predmetlar lola va tandirdan olinayotgan non. Bu predmetlar orasidagi o'xshash belgi, ularning rang jihatidan mosligi-qizilligi avvaldan ma'lum, oddiy belgi. Garchand, ushbu predmetlardagi o'xshash belgi avvaldan ma'lum bo'lsa ham bu o'xshatish badiiy o'xshatishdir. Zero, bunday o'xshatishlar odatiy nutqda qo'llanilmaydi. Shu jihatdan nonning lolaga o'xshatilishi yozuvchining individual uslubiga xos³.

Uning muhabbati sekin- asta boshlanmadi. Olovdek lov etdi-yu yurak bag'rini kuydirdi qo'ydi.

Bu gapdagi o'xshovchi predmet *olov*; o'xshatilayotgan predmet- *muhabbat*; o'xshash belgi- *lovillamoq, kuydirmoq, alanganmoq, avj olmoq kabi*; o'xshatish vositalari- *dek*. O'xshatish turi, oddiy. Lingvokognitiv xususiyatiga nazar tashlasak, asardagi qahramon Azizxon haqiqiy mard va jasur, bitta so'zli, dangal yigit. Uning muhabbati ham o'zi singari edi. Bu yerda yozuvchi muhabbatni bekorga olovga qiyoslamagan. Sababi, Azizxonning muhabbati olov singari jo'shqin, haroratli ammo umri qisqa ishq ekanligiga ishora qilingan

Yombi oltindek sap-sariq behilar, har biri choynakdek anorlar shohini qayirgan bog'lar orqada qolib ketdi.

Said Ahmad so'z qo'llashda tengsiz ijodkor ekanligi, original tarzda o'xshatishlar yaratganligi, har bir so'z zamirida olam-olam ma'no va mantiq yashirin ekanligi hamda kitobxonga o'zgacha bir zavq ulashuvchi ijodi bilan tahsinga sazovordir.

³ B. Umurqulov Badiiy nasr jozibas. "Muharrir nashriyoti" Toshkent, 2021.

Yuqorida keltirilgan o'xshatishlar ham juda go'zal va original. Biz buni badiiy o'xshatishlar turiga kiritamiz, chunki oddiy nutqimizda anorni choynakka o'xshatsak ham behini yombi oltinga o'xshatib tasvirlash kuzatilmaydi. Bu yozuvchi mahorati, tasavvur olamining kengligi va boyligidan dalolat. Bu kabilarni ko'plab keltirish mumkin.

Yuqorida kuzatgan misollarimiz orqali mahoratli yozuvchi Said Ahmad ijod dunyosiga, ko'ngil ko'zgisiga ozroq bo'lsada nazar tashladik va bu insonni, nihoyatda iste'dodli va keng qirrali, mushohadali ijodkor sifatida yana bir bor kashf qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 Atoullloh Husayniy. Badoyi us-sanoyi,- Toshkent :G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at,1981.- B.6
- 2 Mukarramov. M O'zbek tilida o'xshatish. –B.6
- 3 B. Umurqulov Badiiy nasr jozibasi “Muharrir” nashriyoti .Toshkent, 2021
- 4 Said Ahmad “Ufq” trilogiyasi. “Sano-standart” nashriyoti, Toshkent 2018